

ISLOM HUQUQIDA VOYAGA YETMAGANLAR IJTIMOIIY MANFAATLARINING TA'MINLANISHI

G'aniyev Murodiljon

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "islom huquqi" magistranti

Annatotsiya: Ushbu maqolada islom huquqida voyaga yetmagan bolalarning huquqlari, shu jumladan yashash huquqi, chiroyli ism qo'yish, odobli-axloqli qilib tarbiyalash, ta'lim olish, ularni jamiyat uchun kerakli shaxslar qilib tarbiyalashda islom dini ko'rsatmalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Konventsiya, bola huquqlari, ota-ona, jamiyat.

Islom huquqida voyaga yetmaganlar ijtimoiy manfaatlarining ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilmoqlik majburiydir. Islom huquqida voyaga yetmaganlar ijtimoiy manfaatlari taminlanganmi?

Ulamolarimiz bu savolga javob tarzida quyidagilarni zikr qiladilar:

1. **Yashash huquqi**

Bolaning islom shariatidagi ijtimoiy huquqlarining eng birinchisi bu-yashash huquqidir. Yashash huquqi islomda muqaddasdir, chunki o'z-o'zini asrash islom shiati atrofida aylanadigan eng muhim maqsaddir. Albatta yashash huquqi insoniy mavjudlikning va huquqlarning asosidir. U har bir inson faoliyatining boshlang'ich nuqtasi, eng qimmatli va xavflisi bo'lganligi sababli, kelib chiqishi yoki mansubligidan qat'i nazar har qanday insonga hujum qilishi taqiqlanadi.¹

Har bir inson yashash huquqidan foydalanadi va bu haqda odamlardan so'roq qilishga hech kimning haqqi yo'q. Alloh taolo ota-onalarni, har qanday sabab va asoslarga qaramay, farzandlarining joniga qasd qilishdan ogohlantirgan:

Keling, Robbingiz sizlarga harom qilgan narsalarni tilovat qilib beraman: "Unga hech narsani shirk keltirmang! Ota-onangizga yaxshilik qiling! Ochlikdan qo'rqib, bolalaringizni o'ldirmang. Biz sizlarni ham, ularni ham rizqlantirurmiz. Fahsh-buzuq ishlarning oshkorasiga ham, maxfiysiga ham yaqinlashmang. Alloh harom qilgan jonni o'ldirmang. Magar haq ila bo'lsa, mayli. Ushbularni sizga amr qildikki, shoyad aql yuritsangiz."- deb ayt.²

¹ Vahba Az-Zuhayli, Xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari qiyosiy tadqiqot, Dar al-Fikr, Damashq, 2012.

² "An'om" surasi 151-oyat

Bolalaringizni faqirlikdan qo‘rqib o‘ldirmang. Biz ularni ham, sizlarni ham rizqlantiramiz. Albatta, ularni o‘ldirish katta xatodir.³

Johiliyat davrida arablarda faqirlik va ochlikdan qo‘rqib farzandni tiriklay ko‘mib yuborish odati bor edi. Yuqoridagi ikki oyat doimiy taqiqni ifodalaydi, chunki o‘ldirish uchun hech qanday asos yo‘q. Alloh taolo “Isro” surasida otalarning farzandlarini rizqini berishlikni ularning rizqini berishlikdan oldin zikr qildi. Chunki ular faqir bo‘lib qolishdan qo‘rqib farzandlarini o‘ldirar edilar.

Xalqaro huquqda bolaning yashash huquqi:

1948-yil, 10 dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 3-moddasida:

“Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir” deyilgan

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konventsianing 6-moddasida:

“Ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e’tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog‘lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar”⁴ deyilgan.

Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug‘ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har bir bola ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquqda 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Milliy qonunchiligimizda bolaning yashash huquqi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi Qonuni 8-modda. Bolaning yashash huquqi kafolatlari

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

Davlat sog‘lom bolaning tug‘ilishi va rivojlanishini ta’minlash uchun sharoit yaratadi.⁵

Oila kodeksining 65-moddasida belgilangan bolani yashash va tarbiyalanish huquqi avvalo bola o‘z ota-onasi bilan birga yashashligi mumkin ekanligini anglatadi.⁶

Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga binoan o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi. Tabiiy, ulardan katta bo‘lgan yoshdagi voyaga yetmagan bolalar ham ular bilan yashaydilar.

³ “Isro” surasi 31-oyat

⁴ Qarang: <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>

⁵ Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi [Qonuni](https://lex.uz/acts/-1297315). <https://lex.uz/acts/-1297315>

⁶ Qarang: O‘zbekiston respublikasining oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/-104720>

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi o'z ota-onasini bilish huquqi bilan mustahkam bog'liqdir. Bu haqda «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ni 7-moddasida to'g'ridan-to'g'ri belgilanadi. Haqiqatda biroq qo'shimcha sharti bilan «agar bu mumkin bo'lsa» bunday holat voyaga yetmagan bolaning huquqi sud tartibida otalik belgilanayotgan vaqtda nazarga olinadi.

Oila kodeksi 66-moddasining birinchi qismiga binoan bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ota-onasining nikohdan ajralish, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bunga ta'sir etmaydi.

Ota va ona alohida yashayotgan bo'lsalar u holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ota-ona turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.⁷

2. **Nasl-nasabi sobit bo'lish huquqi.**

Bola tug'ilishi bilan uning bir muncha haqlari ham tug'iladi. O'sha haqlarning eng asosiylaridan biri poknasab bo'lish haqqidir.

Nikohning asl maqsadlaridan biri ham nasabni saqlashdir. Busiz oila ham, otalilik ham, bolalik ham, qarindosh-urug'lik ham, jamiyat ham bo'lmaydi. Farzandning ota-onasi nikohdan o'tgan, xalol-pok yashagandagina nasabi aniq va pok bo'ladi. "Nasab" so'zi lug'atda "nisbat berish", "mansublik" ma'nolarini anglatadi.

Shar'iy istilohda esa, "Yaqinlik-ikki insonning tug'ilishda mushtaraklik sababidan bog'lanishi"dir. Nasab ota yoki ona tarafidan bo'lishi mumkin. Nasab eng muhim va o'ta nozik ijtimoiy hukmlardan biridir. Zotan, inson aynan nasab orqali ota-onasini, bobo-momosini, amki-tog'asini, amma-xolasini va boshqa qarindoshlarini taniydi va ular bilan aloqada bo'ladi.

Islom sha'riyatida nasabga alohida e'tibor berilishi unga bog'liq o'ta muhim xaqqlar borligi uchundir:

a) Nasabni yaxshi aniqlash kelajakda mahramlar orasida nikohlanishdek katta gunohning oldini oladi. Agar bu ish bo'lmasa, odam bilmasdan, o'zining qarindoshi bilan oila qurib qo'yishi va buning oqibatida ko'plab zarar tortishi va gunohga qolishi bor.

b) Nasabning sobit bo'lishi ota-ona xaqqlarining ham sobit bo'lishiga xizmat qiladi. Agar nasab aniqlanmasa, ba'zi xolatlarda inson uchun eng muhim ishlardan bo'lgan ota-ona xaqqlarining poymol bo'lishi turgan gap.

v) Nasabga e'tibor berish qarindosh-urug'lariga e'tibor berish va ularga silai rahm qilishni yo'lga qo'yish deganidir.

Abu Xurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinidi:

⁷ Qarang: O'zbekiston respublikasining oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/-104720>

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Nasablaringizni o‘rganing, u bilan silai rahm qilasiz. Zotan, silai rahm ahlga muhabbat, molning ziyodasi asarini ortdan qoldirishdir”, -dedilar”.

Termiziy rivoyat qilgan.⁸

Har bir kishi nasabini, ya’ni ajdodlarini, qarindosh-urug‘larini yaxshi tanib olishi lozim.

3. Farzandga munosib ota va ona tanlash majburiyati

Shariat ta’limotlari bo’yicha, ota-onaning farzand oldidagi burchlari oila qurishdan avval – umir yo‘ldoshini tanlash paytida boshlanadi. Har bir shaxs o‘zining bo‘lajak farzandi uchun munosib ota-ona tanlash majburiyatidadir.

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sallolohu alayhi vasallam dedilar:

“Urug‘laringizga ixtiyorni yaxshi qiling. Tengni nikohingizga oling va o‘shalarga nikohlang”.

Ibn Moja rivoyat qilgan.

Ushbu xadisda Rosululloh sallolohu alayhi vasallam bo‘lajak ota va onalarga murojaat qilib, o‘zlarining bo‘lajak farzandlariga munosib ota va munosib ona tanlashga amr qilmoqdalar. Bundan, musulmon inson oila qurayotganda faqat o‘zining foydasini o‘ylamasdan, bo‘lajak farzandini ham o‘ylab, unga munosib ota yoki ona tanlashi kerakligi kelib chiqadi.

4. Munosib ism egasi bo‘lish huquqi.

Bolaning ota-onadagi xaqalaridan, ota-onaning farzand oldidagi vazifalaridan biri oilaning yangi a’zosiga ma’nodor chiroyli ism qo‘yishdir. Bu ishning ahamiyatini anglab yetishimiz uchun birgina iqtibos keltirishga ijozat bergaysiz.

Xusayn ibn Xasan Marvaziy “Kitobul birri vasila”da Abul Mo‘tamirdan keltirgan rivoyatda yozadi: “Umar ibn Abdulazizning huzurida masalalarni muzokara qilishdi. Shunda, bir kishi aytdi: “Menga yetib kelgan xabarga ko‘ra, tug‘ilgan bolaga ism qo‘ymay turib, o‘lgan bo‘lsa, Qiyomat kuni otasiga: “Meni ismsiz tark qilding-ku!”-deydi”.

Shuning uchun ham har bir musulmon ota-ona bu muxim ishga alohida e’tibor ila yondoshmog‘i lozimdir. O‘zi bilmasa, biladiganlardan so‘rab, o‘rganib, o‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, bolasiga ism qo‘yishi kerak. Qo‘ygan ismda orzu-umid, yaxshi niyat, go‘zallik, xayr-baraka o‘z ifodasini topsin. Farzand katta bo‘lib, oq-qorani taniganda o‘z ismidan uyaladigan bo‘lmasin. Balki ismi unga ziynat bo‘lib tursin.

Islomda har bir narsaning go‘zal bo‘lishiga alohida ahamiyat beriladi. Bunda Rosululloh sallolohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari asos bo‘ladi:

Ibn Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

⁸Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Baxtiyor oila.Toshkent: Hilol nashr-2011.

“Rosululloh sollollohu alayhi vasallam dedilar: “Albatta, Alloh go‘zaldir. Go‘zallikni sevadir”.

Ahmad va Muslim rivoyat qilganlar.⁹

Binobarin, musulmon inson barcha narsada go‘zallikni ko‘zlashi kerak. Jumladan, bolalarga ism qo‘yishda ham.

Rosululloh sallollohu alayhi vasallam bolalarga ism qo‘yishga alohida e‘tibor berganlar. Bu o‘ta muhim ishning qiyomat kuniga ham bog‘liq joyi borligini aytganlar.

Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sollollohu alayhi vasallam dedilar:

“Albatta, Qiyomat kuni o‘z ismlaringiz va ota-onalaringiz ismi ila chaqirilursiz. Bas, ismlaringizni go‘zal qiling”.

Abu Dovud, Ibn Hibbon, Tabaroniy va Bayhaqiy rivoyat qilganlar.¹⁰

Ismning chiroyli bo‘lishi Qiyomat kuni ham kerak bo‘lar ekan. Chunki barcha xaloyiq yig‘ilgan joyda birovning ismi aytib chaqirilganda ismi go‘zal bo‘lsa, xursand bo‘lishi, aksincha bo‘lsa, xijolat bo‘lishi tabiiy. Bu holat ushbu yorug‘ dunyoda ham bor. Ismi noqulayligidan xijolat bo‘lib yuradiganlar oz emas, ismini o‘zgartirganlar ham ko‘p. Ammo, o‘sha narsa avval boshda bola yangi tug‘ilgan paytda bir yo‘li yaxshilab yo‘lga qo‘yilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uning musulmon farzandi ekanini dunyo-yu oxiratda ismi ham namoyon qilib turadi.

5. **Yangi tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon va takbir aytish ota-onaning burchi, bolaning haqqidir.** Azon ilohiy madhiya ekani barchaga ma‘lum. Bu ishning fazli qanchalar ulug‘ligini hamma yaxshi biladi. Azon aytilgan joyda baraka bo‘ladi, azon aytilgan joydan shayton qochadi. Shuning uchun ham Rosululloh sallollohu alayhi vasallam yangi tug‘ilgan bolalarning o‘ng qulog‘iga azon, chap qulog‘iga takbir aytganlar va ummatlariga shunday qilishni tavsiya qilganlar. Yangi tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon va takbir aytishda go‘zal ramz va ma‘no bor. Unda, bu bola yangi tug‘ildi, hali qulog‘iga hech qanday ovoz kirgani yo‘q. Uning qulog‘iga dastlab kiradigan ovoz “Allohu Akbar!” bo‘lsin, ilohiy madhiya bo‘lsin, toki bu bola doimo yaxshi ovozlarni, ulug‘ so‘larni eshitib yursin, degan orzu-umid bor.

Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning O‘zlari bolalarning qulog‘iga azon aytganlar.

Abu Rofe’ roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning Fotima roziyallohu anho Hasan ibn Alini tuqqanida uning qulog‘iga namozning azonini aytayotganlarini ko‘rdim”.

Abu Dovud va Termiziy rivoyat qilganlar.¹¹

⁹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy Tarbiya. Toshkent. Hilol nashr-2008.

¹⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Toshkent: Hilol nashr-2011.

¹¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Hilol nashr. Toshkent-2011.

Ushbu hadisi sharifga binoan, yangi tug'ilgan farzandning o'ng qulog'iga azon, chap qulog'iga iqoma aytmoq mandubdir. Yangi tug'ilgan bolaning qulog'iga kirgan birinchi narsa Allohning zikri bo'lishi qanday ham yaxshi. Albatta, bu ulug' narsaning o'ziga yarasha barakasi bo'ladi.

Bundan tashqari, bolaning qulog'iga azon va iqoma aytishning yana hikmati bor.

Husayndan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sallollohu alayhi vasallam:

“Kimning bolasi tug'lsa-yu, uning o'n qulog'iga azon, chap qulog'iga iqoma aytsa, unga Ummi Sibyon zarar yetkaza olmas”,-dedilar”.

Abu Ya'lo rivoyat qilgan.¹²

“Ummi Sibyon” bolalarga ziyon yetkazadigan jin toifasidir. Uning qiladigan ishi go'daklarga zarar yetkazishdan iborat. Ammo bolaning qulog'iga azon va takbar aytib qo'yilsa, mazkur jin bolaga zarar yetkaza olmay qoladi. Buning ustiga, azon va takbir bolaning qalbiga, butun vujudiga yaxshi ta'sir qilishidan umidvorlik ham bor.

Ko'pchilik sahobalar o'zlarining yangi tug'ilgan farzandlarini Rosululloh sallollohu alayhi vasallamning huzuriga olib borar edilar. U zot alayhissalom yosh bolalarni ko'rsalar, juda xursand bo'lar edilar. Ularga ism qo'yish bilan birga, tanglaylarini ko'tarib qo'yar edilar.

Oisha roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosulullohu sollollohu alayhi vassalamga go'daklar keltirilar edi. Bas, U zot ularning tanglaylarini ko'tarar va ularga baraka tilab, duo qilar edilar”. Ahmad rivoyat qilgan.¹³

Yosh bolaning tanglayini ko'tarish – katta odam bir narsani oldin o'zi chaynab turib, bolaning og'ziga qo'li bilan solib, tanglayiga tekkizib qo'yishidir. Bu narsa meva bo'lgani afzaldir. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam deyarli doim bolalarning tanglayini xurmo bilan ko'targanlar. Bu ham yaxshi niyat alomati bo'lib, bu ishni ahli solih, fazilatli kishilar qilishlari marg'ubdir.

Ba'zida Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning o'zlari bolalarni oldirib kelib, tanglayini ko'tarib qo'ygan holatlari ham bo'lgan. Bunga Anas ibn Molik roziyallohu anhudan qilingan quyidagi rivoyat misoldir.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollollohu alayhi vasallam:

“Ey Anas, onangni oldiga borib: “O'g'lingni kindigini kesganingdan keyin unga hech narsa tatitmay turib, menga yubor”, - dedilar”, degin” – dedilar.

U (onam) bolani ikki qo'limga qo'ydi. Men uni Nabiy sollollohu alayhi vasallamning huzurlariga keltirib qo'ydim. U zot sollollohu alayhi vasallam:

“Menga uchta Ajva xurmosi keltir”, - dedilar.

¹² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Hilol nashr Toshkent-2011.

¹³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Hilol nashr. Toshkent-2011.

Men keltirdim. U zot ularning danagini olib tashlab, ogʻizlariga solib, chaynadilar va bolaning ogʻzini ochib, soldilar, bola tamshana boshladi. U zot sollolohu alayhi vasallam:

“Ansoriy-da, xurmoni yaxshi koʻradi!” – dedalar.

Soʻngra: “Onangga borib, “Alloh senga bundan baraka bersin va uni yaxshi hamda taqvodor qilsin”, - deb ayt”, - dedilar.

Ahli solih, duogoʻy kishilarning yangi tugʻilgan bolalarning tanglayini koʻtarishlari va ular uchun duo qilishlari, ayniqsa, baraka tilab, duoi xayrlar qilishlari juda ham yaxshidir. Barcha ota-onalar bunga katta eʼtibor bermoqlari kerak.

Bolaning tanglayini koʻtarishda ham goʻzal ramz va maʼno bor: bola yangi tugʻildi. Hali uning tomogʻidan turli ozuqalar oʻtgani yoʻq. Uning ogʻziga kiradigan va tanglayiga tegadigan birinchi narsa, taqvodor, ibodatli va duogoʻy odam tomonidan taqdim qilinadigan shirin va halol-pok ozuqa boʻlsin. Toki bu bola umri boʻyi shirin va halol-pok ozuqalarni tanovul qilib yursin, taqvodor, ibodatli boʻlsin.

6. Bolani qaramogʻiga olish ham ota-ona yoki yaqin qarindoshlarning burchi, bolalarning haqqidir, valiylik ota-ona vaqarindoshlarning burchi va yosh bolalarning haqqidir.

Bu ish arab tilida “hizona” deyilib, “quchogʻiga olish” maʼnosini bildiradi. Shariat istilohida esa ota va ona ajrashgandan keyin goʻdak bolani oʻz qaramogʻiga olish va tarbiya qilishga aytiladi.

Onaga majburlanmasdan beriladi. Taloq qilinganmi yoki boshqacha boʻlganmi, baribir.

Yaʼni ota-onaning nima sababdan va qanday holatda ajrashganlaridan qatʼi nazar, onasi istab tursa, bola unga beriladi.

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Bir ayol: “Ey Allohning Rasuli, mana bu oʻgʻlim uchun qornim joy boʻlgan edi, ikki koʻkragim suvidish edi, quchogʻim muhofazachi boʻlgan edi. Endi otasi meni taloq qilib, uni mendan tortib olmoqchi”, dedi.

Shunda Rosululloh sallollohu alayhi vasallam unga:

“Modomiki turmush qilmasang, sen unga haqliroqsan”, dedilar”.

Abu Dovud, Ahmad va Hokim rivoyat qilganlar. Hokim sahih degan.¹⁴

Ibn Abu Shayba oʻzining “Musannaf” nomli kitobida Saʼiyd ibn Musayyabdan rivoyat qiladi:

“Umar Ummu Osimni taloq qildi. Keyin uning oldiga bordi. Osim uning quchogʻida turgan edi. Bolani undan tortib olmoqchi boʻldi. Ikkovlari uni tortishib ketdi. Bola yigʻlab yubordi. Bas, Abu Bakr unga: “Ayolning silashi, quchogʻi va hidi uning uchun sendan koʻra yaxshiroq. Bola yigʻlasa, oʻzi tanlab oladi”, - dedi.

¹⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiy Tarbiya. Hilol nashr Toshkent-2008.

Agar ayol bolani olishni istamasa, u majburlanmaydi. Illo, undan boshqa shaxs bo'lmasa yoki bola undan o'zgaga ko'nmasa, majburlanadi.

Bolani qaramog'iga olishga haqdorlarning onadan keyingi tartibi quyidagicha:

So'ng onaning onasi, agar yuqorilasa ham. Keyin otasi onasi, ota va ona bir opasi, ona bir opasi, ota bir opasi. So'ngra shu tartibda xolasi va ammasi. Ular hur bo'lishlari sharti ila.

Bu hukmga dalil ushbu hadisdir:

Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Zayd ibn Horisa Makkaga borib, Hamzaning qizini olib keldi.

Shunda Ja'far:

“Uni men (qaramog'imga) olaman. Unga men haqliman. Chunki u amakimning qizi. Uning xolasi mening qo'limda. Xola ona (o'rnida)dir”, dedi.

Ali esa:

“Unga men haqliroqman. U amakimning qizi. Rosululloh sallollohu alayhi vasallamning qizlari mening qo'limda. U bu qizga haqliroq”, dedi.

Zayd esa:

“Unga men haqliman. Uni olib kelgani men bordim, men safar qildim va uni o'zim olib keldim”, dedi.

So'ng Rosululloh sallollohu alayhi vasallam ularning oldiga chiqdilar-da, uni Ja'farga berishga hukm qildilar va:

“U xolasi bilan bo'ladi. Xola ona(o'rnida)dir”, dedilar”.

Abu Dovud va ikki shayx rivoyat qilganlar.¹⁵

Yetti yoshdan balog'at yoshiga yetguncha bo'lgan bolalar valiyga, o'zidan katta rahbarga muhtojdirlar. Bu ham ota-ona bo'lmasa, yaqin qarindoshlarga yuklatiladi.

7. Bolaga mehribonlik ko'rsatish ota-onaning vazifasi va bolaning haqqidir.

Inson zoti doimo mehr-muhabbatga ehtiyojli bo'ladi. Ayniqsa, bolalar bu narsaga juda ham muhtojlar. Aslida, mehr-muhabbat dini bo'lmish Islom, shuning uchun ham bolalarga mehr-muhabbat ko'rsatishni ota-onalarga vazifa etib yuklagan.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh sallollohu alayhi vasallam o'z huzurlarida Aqra' ibn Hobis ibn Taymiy o'tirganda Hasan ibn Alini o'pdilar. Shunda Aqra':

Mening o'nta bolam bor. Ulardan birortasini o'pganim yo'q”, - dedi.

Shunda Rosululloh sollollohu alayhi vasallam unga nazar soldilar-da, so'ng:

“Rahm qilinmaganga rahm qilinmas”, - dedilar.

Buxoriy, Abu Davud va Termiziy rivoyat qilganlar.

¹⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiiy Tarbiya. Hilol nashr. Toshkent-2008.

8. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning ijtimoiy haqqidir, balogʻatga yetgan farzandni oilali qilib qoʻyish ota-onaning burchi va bolalarning haqqidir.

“Tarbiya” soʻzi arabcha “robba” feʼlidan olingan boʻlib, oʻstirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi maʼnolarini bildiradi.

Musulmon ulamolari “tarbiya”ni bir necha xil taʼrif qilganlar.

Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha taʼriflaydi:

“Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”.

Rogʻib Afsahoniy tarbiyani quyidagicha taʼrif qiladi:

“Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga oʻtkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat ila oʻstirishdir”.

Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng masʼuliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar baʼzi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya masʼuliyati bardavom boʻladi. Zotan, ota-onaning farzand neʼmatiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya masʼuliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Amaliy shukr – berilgan neʼmatni neʼmat beruvchi zotni rozi qiladigan tarzda tasarruf qilish bilan boʻladi. Binobarin, farzand neʼmatiga amaliy shukr qilish oʻsha farzandni Alloh taolaga itoat qiladigan banda qilib tarbiyalash bilan yuzaga chiqadi. Farzand tarbiyasida ota-onalarning oʻrni qanchalar katta ekanini Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflaridan bilib olamiz.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sallollohu alayhi vasallam:

“Siz unda quloq-burni kesilganini his qilganmisi?” dedilar.

Soʻngra Abu Hurayra “Agar xohlasangiz: “(Bu) Alloh odamlarni yaratgan asl fitratdir. Allohni yaratganini oʻzgartirib boʻlmas. Ushbu toʻgʻri dindir”, degan oyatni oʻqing”, der edi”.

Ushbu hadisi sharifda Alloh taolo insonlarni yaratish paytida sof sababli bu soflikka putur yetishi, uning buzilishi haqida soʻz ketmoqda. “Fitrat” sof tabiat, dinni toʻgʻri qabul qilishga boʻlgan qobiliyat deganidir.

Alloh taolo bu dunyodagi narsalarni sababiyat qonuni ila bir-biriga bogʻlab qoʻygan. Och inson taom yemasa, qorni toʻymaydi. Ota-ona qoʻshilmasa, bola tugʻilmaydi. Huddi shuningdek, tarbiya boʻlmasa, inson tarbiya koʻrgan boʻlib voyaga yetmaydi.

Shuning uchun ham islomda bola tarbiyasiga alohida eʼtibor beriladi. Bola tarbiyasi boʻyicha mutaxassislarimiz: “Bolaning tarbiyasini tugʻilishi bilan boshlash kerak”, deyishadi.

2.Tarbiyaning ikkinchi qismi bolaga taʼlim berishdir.

“Ta’lim” arabcha “allama” fe’lidan olingan masdar bo‘lib, bir narsaning haqiqatini batafsil va yaxshilab bildirish ma’nosi anglatadi. Ilm esa bir narsani voqe’likda qanday bo‘lsa, ishonch ila o‘shanday idrok qilishdir. Ilm o‘rganish har bir musulmon uchun farzdir.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Ilm talab qilish har bir musulmon zimmasiga farzdir”, - dedilar”.

Imom Ahmad va ibn Mojalar rivoyat qilganlar.¹⁶

Demak, har bir musulmon ilm talab qilishni o‘zi uchun farz, deb bilishi kerak. Islomda ilm talab qilish beshikdan to qabrgacha farz qilingan. Keling, ushbu ma’noni kengroq tushunishga harakat qilaylik.

Farz Alloh taoloning qat’iy amri bo‘lib, uni bajarish har bir mo‘min uchun majburiydir. Farz amalni bajarmagan odam katta gunoh ish qilgan bo‘ladi, oxiratda iqobga uchraydi.

Farz ikki qismga bo‘linadi: farzi ayn va farzi kifoya.

“Farzi ayn” har bir musulmon shaxsan bajarishi lozim bo‘lgan ishdir. Uni birov uchun boshqa odam ado etgani bilan, farz bajarilgan bo‘lmaydi. Bunga namozni misol qilish mumkin. Balog‘atga yetgan har bir mo‘min inson besh vaqt namozni o‘qishi farzi ayn. O‘qimagan odam qattiq gunoxkor bo‘ladi.

“Farzi kifoya” esa ba’zi bir musulmonlar ado etsa, boshqalar uchun kifoya qiladigan ishdir. Bunga janoza namozini misol qilish mumkin. Bir musulmon vafot etsa, uni yuvib-tarab, janozasini o‘qib, ko‘mish hamma musulmonlar uchun farz bo‘ladi. Ammo, farzi kifoya bo‘lganligi uchun, bir insonning janozasini ba’zi musulmonlarning o‘qigani kifoya qiladi. Boshqalardan farz soqit bo‘ladi.

Shuning uchun ham ota-onaga farzandlariga ta’lim berish vazifa etib yuklangan.

Ushbu huquq O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda:

“Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.” Ushbu modda bilan O‘zbekiston respublikasida yashovchi voyaga yetmaganlarning ta’lim olish huquqi kafolatlangandir. Bundan tashqari O‘zbekiston respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” qonuni 23-moddasida “Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari” haqida: “Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim olishini kafolatlaydi.” deyilgan.¹⁷

ikki mo‘ljal orasida

¹⁶Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiiy Tarbiya.Toshkent-2008.

¹⁷ Qarang:O‘zbekiston respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” qonuni 23-moddasi.
<https://lex.uz/docs/-1297315>

Xulosa

1. Islom huquqiy tafakkuri zahirida bola huquqlarining quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: voyaga yetmaganlarning ijtimoiy manfaatlarini kafolatlanganining o'ziga xos tartib-qoidalarini shakllangan.

2. Islom huquqida bolaning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiyaga kirmagan quyidagi huquqlar mavjudligi aniqlandi:

- Farzandlar o'rtasida tenglik huquqi;
- Bolaning nasabi pok bo'lish huquqi;
- Farzand voyaga yetgandan so'ng oila qurishiga ko'maklashish;
- Er va xotin ajrashgan taqdirda sobiq xotin mavjudligi ehtimol qilinayotgan bola (homila) manfaatlarini yo'lida uch oy (idda) muddat o'tmay turib qayta turmush qurishi taqiqlanishi;
- Oilaga tarbiyaga olingan farzandning o'z nasl-nasabini bilish huquqi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonuni 23-moddasi. <https://lex.uz/docs/-1297315>
2. O'zbekiston respublikasining oila kodeksi. <https://lex.uz/acts/-104720>
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ruhiy Tarbiya. Toshkent-2008.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Hilol nashr Toshkent-2011
5. Vahba Az-Zuhayliy, Xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari qiyosiy tadqiqot, Dar al-Fikr, Damashq, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi [Qonuni](https://lex.uz/acts/-1297315). <https://lex.uz/acts/-1297315>